



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar oyi  
uchun dastlabki ma'lumot*

# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi:  
(62) 224-65-09*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 42,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 26,2 mln. AQSH dollariga yoki 38,2 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar 2024 y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **42,3** -38,2 %

(2023- y.: **68,5**)



Saldo

2024- y.: **+11,0** (2023- y.: -29,2)




### Eksport

2024- y.: **26,7** +35,8 %

(2023- y.: **19,6**)

TSA dagi ulushi, % da



63,0



### Import

2024- y.: **15,7** -67,9 %

(2023- y.: **48,9**)



37,0










**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 26,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 35,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 15,7 mln. AQSH dollariga (67,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 11,0 mln. AQSH dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar, ming AQSH dollari)











<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 14 291,6</b></p> <p>Eksport: 8 987,2 Import: 5 304,4</p> <p> 33,8 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 6 246,5</b></p> <p>Eksport: 1 703,7 Import: 4 542,8</p> <p> 14,8 %</p>	<p><b>Pokiston</b></p> <p><b>TSA – 4 644,0</b></p> <p>Eksport: 4 546,2 Import: 97,8</p> <p> 11,0 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p><b>TSA – 3 284,2</b></p> <p>Eksport: 3 284,2 Import: 0,0</p> <p> 7,8 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 2 752,1</b></p> <p>Eksport: 1 635,7 Import: 1 116,4</p> <p> 6,5 %</p>
<p><b>Eron</b></p> <p><b>TSA – 2 748,9</b></p> <p>Eksport: 2 315,2 Import: 433,7</p> <p> 6,5 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 2 396,7</b></p> <p>Eksport: 1 788,1 Import: 608,6</p> <p> 5,7 %</p>	<p><b>Iroq</b></p> <p><b>TSA – 1 237,3</b></p> <p>Eksport: 1 237,3 Import: 0,0</p> <p> 2,9 %</p>	<p><b>Belarus</b></p> <p><b>TSA – 1 107,9</b></p> <p>Eksport: 289,8 Import: 818,1</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 646,7</b></p> <p>Eksport: 16,5 Import: 630,2</p> <p> 1,5 %</p>

Xorazm viloyati jahonning 40 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (33,8 %), XXRda (14,8 %), Pokistonda (11,0 %), Afg‘onistonda (7,8 %) va Turkiyada (6,5 %) qayd etilgan.



## XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	<b>8 523,5</b>	<b>9 042,9</b>	<b>14 291,6</b>
 Eksport	6 035,9	5 033,2	8 987,2
Import	2 487,6	4 009,7	5 304,4
<b>XXR</b>	<b>4 598,3</b>	<b>5 135,1</b>	<b>6 246,5</b>
 Eksport	918,4	641,3	1 703,7
Import	3 679,8	4 493,8	4 542,8
<b>Pokiston</b>	<b>788,2</b>	<b>7 036,7</b>	<b>4 644,0</b>
 Eksport	785,1	7 029,5	4 546,2
Import	3,1	7,2	97,8
<b>Afg'oniston</b>	-	<b>11,6</b>	<b>3 284,2</b>
 Eksport	-	11,6	3 284,2
Import	-	-	-
<b>Turkiya</b>	<b>13 066,5</b>	<b>7 971,5</b>	<b>2 752,1</b>
 Eksport	2 417,3	1 262,8	1 635,7
Import	10 649,2	6 708,7	1 116,4
<b>Eron</b>	<b>615,6</b>	<b>1 407,8</b>	<b>2 748,9</b>
 Eksport	537,2	820,5	2 315,2
Import	78,4	587,3	433,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>4 546,9</b>	<b>3 005,9</b>	<b>2 396,7</b>
 Eksport	2 341,6	795,7	1 788,1
Import	2 205,3	2 210,2	608,6
<b>Iroq</b>	<b>303,4</b>	<b>33,0</b>	<b>1 237,3</b>
 Eksport	303,4	33,0	1 237,3
Import	-	-	-
<b>Belarus</b>	<b>359,1</b>	<b>1 638,9</b>	<b>1 107,9</b>
 Eksport	320,5	106,2	289,8
Import	38,6	1 532,7	818,1
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>520,5</b>	<b>246,3</b>	<b>646,7</b>
 Eksport	47,6	12,7	16,5
Import	472,9	233,5	630,2

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Litva</b>	<b>237,7</b>	<b>391,1</b>	<b>481,0</b>
	<i>Eksport</i>	-	42,8	16,6
	<i>Import</i>	237,7	348,2	464,4
	<b>Turkmaniston</b>	<b>589,1</b>	<b>1 196,5</b>	<b>461,8</b>
	<i>Eksport</i>	256,1	333,3	52,3
	<i>Import</i>	333,0	863,1	409,5
	<b>Germaniya</b>	<b>1 215,8</b>	<b>4 021,8</b>	<b>447,4</b>
	<i>Eksport</i>	429,7	0,1	68,1
	<i>Import</i>	786,1	4 021,7	379,3
	<b>Niderlandiya</b>	<b>0,1</b>	<b>4,1</b>	<b>258,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	4,1	258,7
	<b>Hindiston</b>	<b>730,2</b>	<b>449,5</b>	<b>251,6</b>
	<i>Eksport</i>	6,4	81,6	145,3
	<i>Import</i>	723,8	367,9	106,3
	<b>Tojikiston</b>	<b>304,0</b>	<b>272,4</b>	<b>177,2</b>
	<i>Eksport</i>	296,1	272,4	177,2
	<i>Import</i>	7,9	-	-
	<b>Italiya</b>	<b>57,0</b>	<b>442,9</b>	<b>94,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	0,2	1,8
	<i>Import</i>	57,0	442,7	92,9
	<b>Bangladesh</b>	<b>-</b>	<b>321,2</b>	<b>87,6</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	0,1
	<i>Import</i>	-	321,2	87,5
	<b>Polsha</b>	<b>478,5</b>	<b>717,4</b>	<b>73,9</b>
	<i>Eksport</i>	-	92,8	56,5
	<i>Import</i>	478,5	624,5	17,4
	<b>BAA</b>	<b>245,1</b>	<b>23,6</b>	<b>62,8</b>
	<i>Eksport</i>	245,1	22,5	62,8
	<i>Import</i>	-	1,1	-



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI



2023- y.


2024- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushga Urganch shahri 22,2 % ulush yoki 9,4 mln. AQSH dollari, eng quyi ulushga esa Xiva tumani 2,5 % ulush yoki 1,1 mln. AQSH dollari bilan ega bo'ldi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning mos davriga nisbatan 52,9 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar oyi holatiga ko'ra, 18,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 11,4 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 7,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### XORAZM VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar, ulushi, % da)

Rossiya – 33,8		Qozog'iston – 5,7	
Belarus– 2,6		Turkmaniston– 1,1	
Tojikiston – 0,4		Ukraina – 0,1	
Ozərbayjon – 0,1		Qirg'iz Respublikasi – 0,1	
Armaniston – 0,0		Moldova – 0,0	





Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (33,8 %), Qozog'iston (5,7 %) hamda Belarus (2,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar, ming AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 17,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 11,1 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 6,7 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## XORAZM VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 72 taga yetdi va ular tomonidan 26,7 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 35,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>19 635,9</b>	<b>26 662,7</b>	<b>112,1</b>	<b>135,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 315,2	13 615,5	2,0 m.	163,7	42,3	51,1
Ichimliklar va tamaki	-	301,7	-	-	-	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	485,7	337,6	53,7	69,5	2,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	427,3	227,8	159,5	53,3	2,2	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	47,8	100,7	24,2 m.	2,1 m.	0,2	0,4
Sanoat tovarlari	7 312,6	10 113,5	77,3	138,3	37,2	37,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3,0	58,1	18,1	19,4 m.	0,0	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	2 152,6	1 272,8	180,0	59,1	11,0	4,8
Xizmatlar	891,8	635,1	57,5	71,2	4,5	2,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,6 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (51,1 %), sanoat tovarlari (37,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (4,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**XORAZM VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar)

 <p align="center">XSST bo'limi nomi</p>	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	13615,5	163,7
Sabzavotlar va mevalar	11742,1	141,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1827,4	134,1 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	45,5	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,5	1,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	301,7	-
Ichimliklar	301,7	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	337,6	69,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	232,5	-
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	98,1	122,6
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	7,0	54,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	227,8	53,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	227,8	53,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	100,7	2,1 m.
Noorganik kimyo moddalari	497,6	122,6
Bo'yardigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	22,1	124,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	259,1	84,0


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>10113,5</b>	<b>138,3</b>
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	9876,4	145,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	208,8	39,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	22,0	9,8 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3,5	-
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,5	86,6
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,4	136,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>	<b>58,1</b>	<b>19,4 m.</b>
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	24,7	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	24,2	8,1 m.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	7,9	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1,3	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>1272,8</b>	<b>59,1</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1163,1	69,9
Poyabzal	77,5	61,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	15,0	60,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	11,2	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	6,1	5,1 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, XXR va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,0 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, % da)






## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	5033,2	8987,2	83,4	178,6	2	1
Pokiston	7029,5	4546,2	9,0 m.	64,7	1	2
Afg'oniston	11,6	3284,2	-	283,3 m.	21	3
Eron	820,5	2315,2	152,7	2,8 m.	5	4
Qozog'iston	795,7	1788,1	34,0	2,2 m.	6	5
Xitoy	641,3	1703,7	69,8	2,7 m.	7	6
Turkiya	1262,8	1635,7	52,2	129,5	4	7
Iroq	33,0	1237,3	10,9	37,6 m.	16	8
Belarus	106,2	289,8	33,1	2,7 m.	12	9
Tojikiston	272,4	177,2	92,0	65,0	9	10
Hindiston	81,6	145,3	12,8 m.	178,1	14	11
Germaniya	0,1	68,1	0,0	712,3 m.	30	12
BAA	22,5	62,8	9,2	2,8 m.	17	13
Polsha	92,8	56,5	2094,0 m.	60,8	13	14
Turkmaniston	333,3	52,3	130,2	15,7	8	15
Ukraina	17,5	45,8	5,3	2,6 m.	19	16
Ozarbajjon	4,9	34,8	5,3	7,1 m.	25	17
Qirg'iz Respublikasi	2532,1	27,1	2,1 m.	1,1	3	18
AQSH	10,7	16,9	98,5	158,0	22	19
Litva	42,8	16,6	-	38,7	15	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar, mln.AQSH doll.)\*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Shovot tumani 20,2 % bilan 5,4 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Hazorasp tumani 0,8 % bilan 0,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar oyda 17,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,4 martaga yoki 14,5 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (27,4 %), Rossiya (24,1 %), Afg'oniston (23,3 %) hamda Qozog'iston (11,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 11,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 41,9 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 44,4 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar, ming AQSH dollari, ulushi qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>303,0 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>285,7 <i>tonna</i></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>1 970,6 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>10206,4 <i>tonna</i></p>  <p>7,4 %</p>	<p><b>Yeryong'oq</b></p> <p>98,1 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>20,1 <i>tonna</i></p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>888,7 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>840,3 <i>tonna</i></p>  <p>3,3 %</p>
<p><b>Xurmo</b></p> <p>132,1 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>221,5 <i>tonna</i></p>  <p>0,5 %</p>	<p><b>Dukkakli sabzavotlar</b></p> <p>6647,8 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>1778,6 <i>tonna</i></p>  <p>24,9 %</p>	<p><b>Sabzi</b></p> <p>499,2 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>2237,2 <i>tonna</i></p>  <p>1,9 %</p>	<p><b>Sitrus mevalar</b></p> <p>110,3 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>91,0 <i>tonna</i></p>  <p>0,4 %</p>
<p><b>Boshqa sabzavotlar</b></p> <p>410,7 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>536,8 <i>tonna</i></p>  <p>1,5 %</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>634,4 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>1568,4 <i>tonna</i></p>  <p>2,4 %</p>	<p><b>Quritilgan mevalar</b></p> <p>127,0 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>64,9 <i>tonna</i></p>  <p>0,5 %</p>	<p><b>Boshqa mevalar ( olma, anor, nok)</b></p> <p>15,4 <i>ming</i> AQSH dollari</p> <p>28,2 <i>tonna</i></p>  <p>0,1 %</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	907,4	3237,8	27,4
 Rossiya	6411,0	2848,5	24,1
 Afg'oniston	671,7	2762,9	23,3
 Qozog'iston	7944,0	1356,7	11,5
 Iroq	1007,9	993,4	8,4
 Eron	336,0	436,8	3,7
 BAA	431,3	62,8	0,5
 Ukraina	45,0	45,7	0,4
 Polsha	30,0	38,4	0,3
 Turkmaniston	42,2	31,7	0,3
 Gruziya	15,6	13,2	0,1
 Tojikiston	36,8	9,2	0,1

\* qiymat ifodasidan




2024- yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 27,4 % ni), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan 13,7 % ga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 635,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,4 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 28,8 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (48,3 %), transport (13,3 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (12,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (26,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar oyida import hajmi 15,7 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 32,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (23,9 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (9,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,2 mln. AQSH dollariga kamaydi va 15,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>48 866,0</b>	<b>15 673,1</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>32,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20889,4	3751,0	49,3 m.	18,0	42,7	23,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3085,6	1490,8	2,1 m.	48,3	6,3	9,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	951,0	402,8	5,7 m.	42,4	1,9	2,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	602,0	154,0	-	25,6	1,2	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3124,6	1113,1	102,8	35,6	6,4	7,1
Sanoat tovarlari	2606,5	1454,0	107,9	55,8	5,3	9,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	16895,5	6204,7	116,0	36,7	34,6	39,6
Turli xil tayyor buyumlar	711,3	1102,6	75,3	155,0	1,5	7,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>3 751,0</b>	<b>18,0</b>
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2848,3	14,0
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	411,4	2,4 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	269,9	18,1 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	190,6	95,9
Sabzavotlar va mevalar	30,8	35,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>1 490,8</b>	<b>48,3</b>
Probka va yog'och-taxtalar	1210,7	44,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	280,1	104,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>402,8</b>	<b>42,4</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	402,8	42,4
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>154,0</b>	<b>25,6</b>
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	134,4	22,3
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	19,6	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>1 113,1</b>	<b>35,6</b>
Birlamchi shakldagi plastmassalar	780,2	187,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	116,7	10,5 m.
Noorganik kimyo moddalari	84,7	3,6 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	70,4	60,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	31,9	8,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	28,6	43,8
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,6	1,6

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>1 454,0</b>	<b>55,8</b>
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	549,8	117,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	345,7	57,6
Cho'yan va po'lat	241,9	54,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	159,1	93,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	108,2	30,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	47,0	33,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	2,3	0,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>6 204,7</b>	<b>36,7</b>
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2676,4	26,4
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1682,9	65,9
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1379,9	90,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	339,4	17,2
Metallarni qayta ishlash mashinalari	82,4	110,3
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	23,8	4,8
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	19,5	2,2 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	0,6	0,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>1 102,6</b>	<b>155,0</b>
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	781,1	4,5 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	232,3	192,3
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	33,0	8,6
Poyabzal	22,7	96,2
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	14,2	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	10,6	8,8 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	8,7	89,9

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 45,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 19,0 % ga kamaydi.


### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, ming. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar oyida viloyatimiz 27 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Turkiya, Belarus, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Litva) jami importning 86,0 % ini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar, % da)








## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	4009,7	5304,4	161,2	132,3	4	1
Xitoy	4493,8	4542,8	122,1	101,1	2	2
Turkiya	6708,7	1116,4	63,0	16,6	1	3
Belarus	1532,7	818,1	39,7 m.	53,4	6	4
Koreya Respublikasi	233,5	630,2	49,4	2,7 m.	15	5
Qozog'iston	2210,2	608,6	100,2	27,5	5	6
Litva	348,2	464,4	146,5	133,4	13	7
Eron	587,3	433,7	7,5 m.	73,8	10	8
Turkmaniston	863,1	409,5	2,6 m.	47,4	8	9
Germaniya	4021,7	379,3	5,1 m.	9,4	3	10
Niderlandiya	4,1	258,7	45,1 m.	63,0 m.	28	11
Hindiston	367,9	106,3	50,8	28,9	12	12
Pokiston	7,2	97,8	2,4 m.	13,5 m.	27	13
Italiya	442,8	92,9	7,8 m.	21,0	11	14
Bangladesh	321,2	87,5	-	27,2	14	15
Ispaniya	-	61,5	-	-	-	16
Gonkong	13,6	57,8	-	4,3 m.	25	17
Shveytsariya	1178,8	55,3	104,3 m.	4,7	7	18
Fransiya	-	52,7	-	-	-	19
Avstriya	-	23,1	-	-	-	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar, mln. AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Urganch shahri 46,8 % bilan 7,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani 1,3 % bilan 0,203 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 1,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44,2 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 9,3 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar)

527,6 ming AQSH doll.  
ulushi – 36,3 %



Rossiya

285,3 ming AQSH doll.  
ulushi – 19,6 %



XXR

220,3 ming AQSH doll.  
ulushi – 15,2 %



Qozog'iston

100,7 ming AQSH doll.  
ulushi – 6,9 %



Turkiya

92,1 ming AQSH doll.  
ulushi – 6,3 %



Eron



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (0,5 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (0,3 mln. AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (0,2 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (0,2 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.